

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Türkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khalliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

- | | | |
|----|--|----|
| 1. | <i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i>
IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>) | 15 |
|----|--|----|

I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADI'YAT VA TIPOLOGIYA

- | | | |
|-----|---|-----|
| 2. | <i>Узоқ ЖЎРАҚҲҲОВ.</i>
МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ | 20 |
| 3. | <i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i>
“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ | 48 |
| 4. | <i>Сувон МЕЛИ.</i>
“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И | 57 |
| 5. | <i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i>
THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT | 68 |
| 6. | <i>Münevver TEKCAN.</i>
ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE | 79 |
| 7. | <i>Сергей НИКАНОВ.</i>
К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ | 90 |
| 8. | <i>Мақсуд АСАДОВ.</i>
НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ | 99 |
| 9. | <i>Шоира АҲМЕДОВА.</i>
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА | 107 |
| 10. | <i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i>
ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА | 116 |

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАИМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙИ ВА РУМИЙ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	174
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	174
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	“OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMİY VƏ NAVOIY LIRIKASIDA KO'NGIL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVIY "GIRDI DARVESH-LAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

II SHO'BA SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA MUAMMOLARI

28.	<i>Улугбек ХАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДУНЕДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ	289
35.	<i>Олим ОЛТИНБЕК.</i> РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

37.	<i>Orzigul HAMROYEVA.</i> QOʻFIYAGA OID BIRLIK LARNING QIYOSIY TAHLILI	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE EMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS	333
39.	<i>Тоғжол НОРОВ.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> MAHMUDXO'JA BENBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> BADIY SO'Z JILOSI	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ	377
43.	<i>Komiljon HAMROYEV.</i> SHARQ NIHOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI	386
44.	<i>Ҳилуффар УМАРОВА.</i> УЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕЪРИЯТИ	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> PAREMIYADA XIAZM	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"	422
48.	<i>پوهنپار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعاره مفهومی عشق در اشعار فارسی نوایی	429
49.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i> G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECINMANING POETIK IFODASI	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА	445

51.	<i>Шохрат Нусрат МАМЕДОВА.</i> ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA.</i> "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI	466
53.	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i> ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR.</i> ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI	478
55.	<i>Otabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA.</i> ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN	491
56.	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i> "ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA.</i> "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSJARIDA AYOL FENOMENI	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA.</i> ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK	508
59.	<i>Feruza SAPAYEVA.</i> MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA.</i> BADIIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI	522
61.	<i>Nodira SAIDOVA.</i> "NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA"DAN FOYDALANISH	530
62.	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i> XX ASR BOSHJARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI	534
63.	<i>Нилуфар ДИЛМУРОДОВА.</i> АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	541
64.	<i>Nodira XUDOYNABAROVA.</i> JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA	547

65.	<i>Maftuna NORQULOVA.</i> "HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI	560
67.	<i>Махфуззоҳон ХОМИДОВА.</i> "БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ" ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	568

III SHO'BA NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA MILLIYAT MASALALARI

68.	<i>Nafas SHODMONOV.</i> "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> MURSHID VA MURID MUNOSABATI	592
71.	<i>Нусратулло ЖУМАХЎЖА.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАШАВИЙИ МАЪНАВИЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР	602
72.	نویسنده: پروفسور دکتر فضل الرحمن فقیہی ہروی نقش امیر علیشیر نوابی در تمدنآفرینی دورہ تیموریان ہرات	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAME" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)	624
75.	بشیر احمد قرداش هصالح	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI	642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI	649
	<i>Saodat MUMINOVA.</i>	
78.	AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	“ПЯТЕРИЦА” НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	667
80.	زینب نوروز علی ؛ شادمحمد سہاک جایگاه عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوایی	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY	678
	دکتر نورالرحمن ناصح	
82.	انسان کامل و انسان شناسی از نظر علی شیر نوایی و مولانا با رویکرد تطبیقی	687
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
83.	АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA IJTIMOİY O'ZGARISHLAR	700
	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА.</i>	
85.	“БОР КИТОБИ, ЛЕК ПАЙҒАМБАР ЭМАС...”	710
	<i>Shohista NIYOZOVA.</i>	
86.	MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI	720
	<i>Duygu KOCA.</i>	
87.	ALİ ŞİR NEVÂÎ'NİN ESERLERİNDE AHLAKİ DEĞERLER	727
	<i>Iroda ISHONXANOVA.</i>	
88.	XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK	734
	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА.</i>	
89.	РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ	734
	<i>Nargiza SHOALIYEVA.</i>	
90.	RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI	741
		747

IV SHO'BA
NAVOIY VA RUMIY
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA VA XALQ TEATRI	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> "ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS	777
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR	781
95.	<i>Madina VAHOBOVA.</i> "NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"	786
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI	794
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> KOMIZM XUSUSIDA BIR-IKKI SO'Z	802
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR <i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	810
99.	"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI"NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA	815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> DUNYONING AZALIY SAVDOSI	819
101.	<i>Баҳодур ЖОБЛИЕВ.</i> УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КЎЛАМИ	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI	829
103.	<i>Diyora O'KTAMOVA.</i> ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI	834
104.	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ	839
105.	<i>Selenay ŞAHİN.</i> ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'LDOSHEVA.</i>	
106.	NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI	856
	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i>	
107.	"DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	ŞAİR FÂTİMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	ALİ ŞİR NEVAÎ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUGATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLAMLILIK	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	"BİR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLILI	881
	<i>Beyza ÖZER.</i>	
111.	MÊKÂNDAN LÂMEKÂNA: ALİ ŞİR NEVAÎ VE MEVLÂNÂ	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BILDİREN FİILLER VE BU FİILLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ	897
	<i>Aziz NORQULOV.</i>	
113.	"NASOYIM" PINJIDAGI UMR	910
	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i>	
114.	JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI	916
	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i>	
115.	MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI	924
	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i>	
116.	NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI	930
	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i>	
117.	BİLGAMISH – BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI	934
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	
118.	COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK	938
	<i>Go'zal OMONOVA.</i>	
119.	JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI	944
	<i>Madina TURSUNOVA.</i>	
120.	MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR	949

121.	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i> “ABU RAYHON BERUNIY” DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI	952
122.	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i> ERKIN A’ZAMNING “ANOYINING JAYDARI OLMASI” HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK	957
123.	<i>Nozima KARIMOVA.</i> YOVUZ BAHODIR O’G’LINING “YONAYOTGAN BUXORO” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT	964
124.	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i> YOSHLAR SHE’RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT	970
125.	<i>Sherzod USMONOV.</i> ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR	977
126.	<i>Нармин БАБАЕВА.</i> ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ	983
127.	<i>Yüsra KARAÇA.</i> HZ. MEVLANA’NIN YOLU VE HAT SANATI	993
128.	<i>Lobar BERDIYEVA.</i> SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA RAMZIYLIK	999
129.	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i> “YUSUF VA ZULAYHO”: GENEZIS MASALASI	1006
130.	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i> NAVOIY E’TIROF ETGAN XAMSANAVIS	1014
131.	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i> O’ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK	1018
132.	<i>Saida DAVRONOVA.</i> ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O’ZBEKISTON KINOFOTOFONO MILLIY ARXIVI HUJJATLARIDA YORITILISHI	1022
133.	<i>Mirjalol SODIQOV.</i> “BUYUKLAR TUHFASI” – MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOIR TADQIQOT	1029
134.	<i>Muhayyo ISTAMOVA.</i> AYOL OBRAZI JOZIBASI	1036
135.	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i> YANGI DARSLIKLAR HAQIDA	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA.</i> AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA.</i> NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA.</i> FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA.</i> MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA.</i> XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA.</i> NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA.</i> A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ.</i> MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN RÛMÎ'NİN MESNEVÎ'SİNDE HZ. MUSA KISSASINDAN KESİTLER	1104

Komiljon HAMROYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsfa doktori, dotsent
Doi. 10.52773/tsuull.conf.2025/VGSH8168

SHARQ HIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada Sharq epik asarlarida hikoyatning badiiy vazifalari, tadrij tamoyillari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, Fuzuliyning “Layli va Majnun”, “Bang-u Boda”, “Suhbatul-asmor” asarlaridagi hikoyatlar tizimining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Mazkur asarlarda hikoyatlar badiiy syujet shahobchalarini bir-biriga poetik bog'lashda, voqeadan voqeaga o'tishda, ijodkor konsepsiyasini yagona fokusda ifodalashda muhim poetik komponent ekanligi yoritilgan. Sharq mumtoz adabiyotida hikoyat yaqin va uzoq hayot ziddiyatlarini voqelantiruvchi adabiy hodisa sifatida mustaqil yoki katta epik asarlar tarkibida keladi. Hikoyat nafaqat, badiiy dostonlar tarkibida, balki ilmiy va tarixiy asarlarda ham keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: doston janri, hikoyat, badiiy syujet, qoliplash, badiiy obraz, majoz, epik tafakkur tarixi, an'anaviylik, munozara, tanosub.

Abstract. The article explores the artistic functions and the principle of gradation in narratives within Eastern epic works. It also examines the unique aspects of the narrative system in Fuzuli's works such as Layli and Majnun, Bang-u Bada, and Sohbat al-Asmar. The study highlights how narratives in these works serve as essential poetic components, linking subplots poetically, facilitating transitions between events, and expressing the author's concept through a unified focus. In classical Eastern literature, the narrative appears either independently or as part of larger epic compositions, portraying the near and distant conflicts of life. Narratives are widely employed not only in literary epics but also in scientific and historical writings.

Keywords: epic genre, narrative, artistic plot, structuring, artistic image, metaphor, history of epic thinking, traditionalism, dialogue, proportion.

Hikoyat bashariyat tarixidagi eng ibratli shaxslar hayotini o'zida aks ettirib, o'tmish va bugun orasida ma'naviy ko'prik o'laroq, muhim kichik obida sanaladi. Hikoyatda payg'ambarlar, shohlar, shahzodalar va avliyo zotlar hayotida yuz bergan ibratnamo voqealar ifoda etiladi. O'zbek adabiyotshunosligida Najmiddin Komilov “Tafakkur karvonlari”, Uzoq Jo'raqulov Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi”, Marg'uba Abdullayeva “Adabiy- tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi”, Ilyos Ismoilov “Alisher

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi” nomli tadqiqotlarida hikoyatning turli-tuman badiiy vazifalari xususida fikr yuritilgan. Ushbu tadqiqotlarda qadimgi Sharq hikoyatlarining Gʻarbadabiyotiga taʼsiri, “Xamsa” dostonlari tarkibida hikoyatlarning badiiy funksiyasi, doston arxetikonikasida hikoyatning oʻrni, uning genezisi, tadrij yoʻliga eʼtibor qaratiladi. Umuman olganda, mavjud qarashlarga tayanib Sharq hikoyatlarining oʻziga xos xususiyatlarini muhtasar jumalalarda ifodalab quyidagilarni aytish mumkin:

1. Hikoyatlar sinkretizm, sintetizm va parodaksal davr adabiyoti silsilasining poetik halqalari hisoblanadi. Gʻarb adabiyotida bunday vazifani mif va afsonalar bajargan boʻlsa, Sharqda hikoyatlar orqali anʼanaviy obrazlar hamda syujetlar tizimi badiiy talqin qilingan;

2. Hikoyatlar katta epik asarlar tarkibida qoliplovchi vazifasini bajaradi. Unda badiiy asar konsepsiyasiga muvofiq bosh syujet tarmoqlari sifatida hikoyatlar shodasi qoliplovchi funksiyani bajaradi. “Harat ul-abror”, “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha” va “Dekameron” asarlari shular jumlasidandir;

3. Qadimgi hikoyatlar yirik epik asarlarning xamirturushi hisoblanadi. Yaʼni yirik asarlar tarkibidagi hikoyatlar vaqt oʻtishi bilan oʻrta yoki katta janr naʼmunalari sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Hikoyatga xos bunday xususiyat hikoyaga meros qolgan, dastlab, yozuvchilar ijodida roman tarkibidagi epizodik lavhalar hikoyada sinaladi. Ayniqsa, hikoyaning mazkur jihati folklor asarlarida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Hatto olim Bahodir Sarimsoqov “Epos syujeti negizida ertak emas hikoya turadi” degan, fikrni ilgari suradi. Olim epos syujetiga millat oʻtmishining real tarixi asos boʻladi, degan xulosaga keladi. Masalan, miflashib afsonaga aylangan boʻlsa-da, “Ramayana” syujeti dastlab “Maxabxarata” eposining bir hikoyatida muhtasar bayon qilinadi.

4. Hikoyat Sharq klassik dostonlarida turli maqsadda qoʻllanadi. Agar hikoyatlar xamsachilik anʼanasi kontekstida kuzatilsa, ularning davrdan davrga, ijodkordan ijodkorga, dostonidan dostoniga oʻzgarib poetik takomil etib borishini ham koʻrish mumkin. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy “Xamsa”lari tarkibidagi hikoyatlar taqqoslab oʻrganilsa, yuqoridagi qarashlar oydinlashadi. Birgina “Xamsa”dagi Iskandar haqidagi hikoyatlarga eʼtibor qaratilsa, mazkur obrazning poetik takomil etganini koʻrish

mumkin. Bundan tashqari, hikoyat doston arxitektonikasida bir qancha badiiy vazifani bajaradi. a) hikoyat dostonida pand-nasihat ruhida bayon qilingan ilmiy-nazariy mulohazalarning hayotiy va amaliy ifodasi sanaladi. b) hikoyatlar doston mazmun-mohiyatini o'zida muxtasar ifodalovchi ijod mahsuli sifatida bayon qilinadi. s) hikoyatlar dostonida muallifning voqeadan voqeaga o'tishi, ularni o'zaro bog'lashi hamda tin olishi uchun zamin yaratadi. d) hikoyatlar asar kompozitsiyasida o'zidan oldingi va keyingi voqealar hamda muallif konsepsiyasi bilan ichki bog'lanishda bo'ladi. Umuman olganda, hikoyatning bunday vazifalari Sharq klassik adabiyot na'munalarida xilma-xil bo'lib, maxsus tadqiqotni talab qiladi. Shu bois, biz yuqoridagi ayrim xususiyatlarni Navoiy va Fuzuliy hikoyatlari kontekstida o'rganishga jazm etdik. Fuzuliyning "Layli va Majnun", "Bang-u Boda", "Suhbatul asmor" asarlarida hikoyatlar o'ziga xos tarzda bayon qilinadi. Ushbu asarlarning har birida janr tabiatiga qarab muallif hikoyatlardan turli maqsadda foydalanadi. Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonida hikoyatlar bosh qahramonlarning ishq-muhabbati mahsuli o'laroq ifoda etiladi. Aslida "Layli va Majnun" dostoni bir hikoyat, boshqacha aytganda, asarda hikoyatdan hikoyat tug'iladi. Shoir yozadi:

*"Dehqoni hadiqayi hikoyat,
Sarrofi javohiri rivoyat
Ma'ni chamaninda gul dikanda,
So'z rishtasina guhar chekanda,
Qilmish bu ravishda nuktadonlik,
Gulrezlig-u guharfishonlik –
Kim, xayli arabda bir juvonmard,
Jamiyat-u izzu jo hila fard"*¹.

Sharqda "Layli va Majnun" dostoni ikki shaklda yaratilgan: birinchisida "Xamsa" janrining beshdan bir qismi sifatida badiiy vazifa bajarsa, ikkinchisida esa, mustaqil holda "Dardnoma" doston o'laroq bitilgan. Fuzuliy dostoni o'zining ifoda yo'sini, musiqiy ohangi va shakl xususiyati bilan farqlanib turadi. Doston voqealari alohida nomlanib, qismlarga ajratiladi. Dostonning "Bu sifati Majnundir va ibtidoi mehnati fuzundur", "Guzorishi holi Majnun",

1 Фузулий Муҳаммад. Асарлар. 2 ж. – Т., Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 22.

“Bu Majnun otasi voqifi hol o’ldug’udur oni biyoboni mehnatda bo’ldug’idur”, “Bu Majnunning otasi Layliya xostkorligidir va Layli otasining Majnundan bezorlig’idur”, “Bu Layli ahvolotindan bir xabardur va ma’shuqu oshiq atvorindan bir asardur”, “Bu Zayd vafodoring Majnuna xabar gatirdigidur va Ibni Salom ila Laylining payvanda mujdasini yeturdigidur” kabi qismlarida hikoyaga xos uslub namoyon bo’ladi. Dostonda “Layli va Majnun” hikoyati og’izdan og’izga o’tib har bir kishida hayrat tug’diradi. Dostonda Layli va Majnunning ishq-muhabbati afsonasi, ularning otalariga hikoya orqali yetkaziladi.

*“Ganjinakushoyi ganj guftor
O’lmish bu ado ila guharbor:
K-ul bir necha beqaroru mahzun,
Nochor qilib vidoi Majnun,
Novmid do’nub shikastavu xor,
Qildilar otasini xabardor.
Ul pir chu voqif o’ldi hola,
Majnun kibi etdi ohu nola”¹.*

Bu esa hikoyatning doston tarkibidagi vazifasini ochiqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, doston syujeti voqealari bir-biriga payvandlanadi. Dostonda Qaysning Majnunligi, Layliga bo’lgan muhabbati, uning yaqinlariga, butun tiriklik dunyosiga hikoyatlar orqali yoyiladi. Hikoyatlar doston syujetini harakatga keltirishi bilan birga voqealarni shiddat bilan rivojlanishiga turtki beradi. Shuningdek, dostonda Zayd hikoyati yo’llari ayro tushgan Majnunning Laylidan xabar topishiga sabab bo’ladi.

*“Sohib xabari fasona pardoz
Bu taqrz ila qildi qissa og’oz –
Kim, vor edi bir nadimi nodir,
Zayd odli, vafoyi ahda qodir.
Mashhur edi fazli-yu kamoli,
Ma’ruf edi husnuv-u jamoli.
O’lmishdi asir bir nigora,
But zebli, Zaynab odli yora”².*

1 Фузулий Муҳаммад. Асарлар. 2 ж. – Т., Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 44.

2 Ko’rsatilgan manba. – B. 107.

Ko'rinadiki, dostonda hikoyatlar tizimi quyidagi badiiy vazifalarni bajaradi. Dostonda an'anaviy qahramon "dardnoma" sini bayon qiladi va asar voqealarini bir-biriga payvandlab, badiiy syujet oqimining shiddatini ta'min etadi. Fuzuliyning "Bang-u Boda", "Suhbatul-asmor" asarlari ham qoliplash usulida bitilgan. Bu ikki asarda hikoyatlar majoziy ma'no kasb etib o'ziga xos tarzda bayon qilinadi. "Bang-u Boda" asarida hikoyatlar Bang hamda Boda obrazi atrofida bayon qilinsa, "Suhbatul-asmor" asarida mevalarning hikoyatlari tinglanadi. "Bang-u Boda"da hikoyatlar bang, boda, may, soqiy, bo'za, aroq, afyun, kabilar tomonidan aytilsa, "Suhbatul-asmor"da olma, olcha, o'rik, gilos, anjir, noranj, turunj, shaftoli singari obrazlarning avtobiografik xarakterga ega hikoyatlari keladi. "Bang-u Boda" asarida hikoyatlar tezis, antitezis va sintez sximasida joylashtiriladi. Asar tezisida, ya'ni ibtidosida "Ibtidoi hikoyati may-u bang", "Dar sifoti sharobu suhbatu o'", "Suhani soqi-yu ihonati o'" kabi hikoyatlar bayon qilingan bo'lsa, antitezis qismida "G'azabi may ba Soqiyi soda", "Shudani may bajang omada", "Kardani Boda jangro maqdam" hikoyatlari keltiriladi. Asar sintezida, ya'ni xotimasida "Kardani bahs Bang-u May boham", "Talabi mag'firat zi rabbi g'afur" kabi ikki hikoya bilan yakunlanadi. Asarning tezis qismida keltirilgan hikoyatlar didaktik xarakterda bo'lib, ularda pand-nasihat ruhi bo'rtib ko'rinadi. Shuningdek hikoyatlardagi obrazlar tasavvufiy timsollar sifatida majoziy ma'no kasb etadi. Asarning tezisiga zid o'laroq, antitezis qismda keltirilgan hikoyatlardagi obrazlarning real hayotdagi tuban holati poetik talqin qilinsa, asar xotimasida, yuqoridagi ikki qism tezis va antitezis hikoyatlari sintezlashib, tugal xulosaviy xarakterda bayon qilinadi. Fuzuliyning "Suhbatul-asmor" asari ham mazmun qurilishi bilan "Bang-u Boda" strukturasiga yaqin turadi. Asar munozara shaklida yozilgan bo'lib, mevalar tilidan bayon qilinadi.

Asarda har bir hikoyada muayyan mevaning avtobiografiyasi bilan bog'liq turli-tuman ma'lumotlar bayon qilinadi. Bu esa, mevalar o'rtasida munozarani keltirib chiqaradi. Shoirning ikki asarida ham tanosib badiiy san'atiga xos usul yetakchilik. "Bang-u Boda"da bang, boda, may, soqiy, bo'za, aroq, afyun obrazlari, "Suhbatul asmor"da esa olma, olcha, o'rik, gilos, anjir, noranj, turunj, shaftoli kabilar mohiyatan o'zaro bir-biriga yaqin turishi

nuqtayi nazaridan tanosib badiiy san'atini esga soladi. Bu esa, asarlar tarkibidagi hikoyatlarni mazmunan bir-biriga payvandlab, yaxlit adabiy hodisaga aylantirishga zamin yaratadi. Hikoyatdan hikoya tug'ilishiga asos bo'ladi. "Suhbatul-asmor"da mevalarning an'anaviy qahramonlarga xos fazilatlari hamda ayrim qusurlari hikoyalar mozaykasining yaxlit kartinasini chizishda qo'l keladi. Aslida har bir epik asar syujetining bo'linmas bo'lagida hikoya yotadi. Shu ma'noda, Fuzuliyning epik asarlarida ham hikoyatlar mustaqil holda badiiy ma'no kasb etmasa-da, asar syujeti shahobchalarini shakllantirishda, voqeadan voqeaga o'tishda muhim o'rin tutadi. Xullas, Sharq mumtoz adabiyotida hikoyatlar epik tafakkur tadrijini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Nainki hikoyat badiiy asarlarda, ilmiy va tarixiy ijod na'munalarida ham keng qo'llanilgan bo'lib, o'tmish ibratini kelajak avlodlarga yetkazishda ma'naviy karvon vazifasini bajaradi. Shuningdek, hikoyatlar ko'p o'rinlarda ma'lum bir asar tarkibidagi badiiy, ilmiy-nazariy va adabiy mulohazalarning hayotiy hamda amaliy ifodasi sifatida bayon qilinadi. Xususan, Fuzuliy ijodida hikoyatlar majoziy ma'no kasb etib, badiiy asar syujetini qurishda poetik bog'lam vazifasini o'taydi. "Layli va Majnun" dostonida hikoyatlar qahramonlarning ishq-muhabbati mahsuli sifatida bayon qilinadi. Bundan tashqari, dostonida hikoyatlar asar syujetini shiddat bilan kechishida, voqeadan voqeaga o'tishida, turli tarmoqlarni yagona fokusda jamlashda muhim poetik asos o'laroq namoyon bo'ladi. Fuzuliyning "Bang-u Boda", "Suhbatul-asmor" asarlaridagi hikoyatlar esa qoliplovchi xarakterga ega bo'lib, bir-biriga yaqin turli timsollar tilsimidan so'z ochadi. Bu esa, asarlarda hikoyatdan hikoya tug'ilishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Фузулий Муҳаммад. Асарлар. 2 ж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
3. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999.

4. Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa" sida xronotop poetikasi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2017.

5. Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. Монография. Тошкент: Nurafshon business, 2020. 104 б (6.5 б.т.)

6. Жўрақулов У. Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте. "ShARQ-U G'ARB: NAVOIY VA GYOTE" мавзуидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, 2023-йил, 21-июн. – Тошкент: "Nurafshon business", 2023. 8-30-бет.

7. У. Жўрақулов. "Илми балоғатнинг маншаъи" "Шарқу Фарб ренессанс адабиёти: Навоий ва Шекспир" мавзуидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари.

8. Yakubov I. A National novel is a unique cardiogram. International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research Nottingham, 2024.

9. Yakubov I. Angles of poetic expression in uzbek novels of the independence period. Internatsional jurnal of resentlyscientific researcher's theory. Vol.2. isse 6. 2024.